ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

# ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

# ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

# JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

SPECIAL ISSUE-1

ТОШКЕНТ-2024

# ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№ SI-1 (2024) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-1



**Бош муҳаррир:**
**Главный редактор:**
**Chief Editor:**
**Сеитов Азамат Пулатович**
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**
**Заместитель главного редактора:**
**Deputy Chief Editor:**
**Сабирова Умида Фархадовна**
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

### 22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
### Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
### Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Каланов Комил Куллахматович**
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Негматова Шахзода Шухратовна**
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
**Исмаилов Алишер Агзамович**
доктор экономических наук, (Узбекистан)

**Щепилова Галина Германовна**
доктор философских наук, профессор (Россия)
**Рожанский Михаил Яковлевич**
кандидат философских наук (Россия)
**Маматов Нормурат**
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
**Камалова Хатира Сабыровна**
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Ғофуров Низомжон Октябрович**
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

### 22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
### Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
### Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилович**
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Холбеков Абдуғани Жуманазарович**
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**
доктор социологических наук, профессор (Россия)
**Акулич Мария Михайловна**
доктор социологических наук, профессор (Россия)
**Каримов Бобир Шаропович**
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Сабиров Алишер Сабирович**
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Ахмедова Феруза Медетовна**
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

**Антонио Алонсо Марсос**
доктор политических наук, профессор (Испания)
**Фадеева Любовь Александровна**
доктор социологических наук, профессор (Россия)
**Виктор Агаджаньян**
доктор философии по социологическим наукам (США)
**Тагиева Гулсум Гафуровна**
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
**Муйдинова Моҳира Мукумжоновна**
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
**Ходжаев Собир Джумаевич**
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

### 22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
### Социология социального сознания и социального процесса.
### Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Николов Стефан**
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
**Бурнашев Рустам Ренатович**
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
**Пармонов Фарход Ярашевич**
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Акрамов Хусан Фуркатович**
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

**Ли Ци**
доктор исторических наук, профессор (Китай)
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**
доктор социологических наук, профессор (Россия)
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
**Доспанова Дилара Уракбаевна**
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
**Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна**
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)
**Якубов Ильдар Харасович**
кандидат политических наук, и.о.доцент (Узбекистан)

**Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи:** Хуршид Мирзахмедов



**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

**1. Сеитов Азамат**
РАЗВИТИЕ СОЦИОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОТ ПРОШЛОГО
К ПЕРСПЕКТИВНОМУ БУДУЩЕМУ....................5

**2. Sabirova Umida**
SOTSIOLOGIK MONITORING YARATISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.............12

**3. Алексеева Виктория**
КОНЦЕПЦИИ ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В АНАЛИЗЕ ДИНАМИКИ
СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ....................21

**4. Kayumov Kaxramon**
KICHIK SHAHARLARNI ILMIY O'RGANISHNING SOTSIOLOGIK JIHATLARI.................30

**5. Alikariyeva A'loxon**
TA'LIM SIFATI БОШҚАРУВИГА NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI..........................36

**6. Mannanova Nilufar**
DAVLAT XIZMATCHILARINI MERITOKRATIK YONDOSHUV ASOSIDA
TANLASH – JAMIYATDA ADOLAT TAMOYILI QAROR TOPISHINING MUHIM
MASALASI SIFATIDA....................44

**7. Mo'minov Zokirjon**
IJTIMOIY MOBILLIK OMILINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI...........51

**8. Jiyanmuratova Gulnoz**
YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MUAMMOSI:
NAZARIY ASOSLAR....................58

**9. Сеитов Мансур**
МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИКА В ФОРМИРОВАНИИ ЖИЗНЕННЫХ ПОЗИЦИЙ
МОЛОДЕЖИ: ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ....................66

**10. Узакова Зарина**
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ:
ОТ СОЦИАЛЬНОЙ К БИОПСИХОСОЦИАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ИНВАЛИДНОСТИ.............74

**11. Ziyayeva Xolida**
AGRESSIV XULQ-ATVORNI O'RGANISHGA QARATILGAN NAZARIYALAR
TAHLILI....................80

**12. Imomova Nozimaxon**
MEHNAT MIGRATSIYASINI VUJUDGA KELISHI VA
TRANSFORMATSIYALASHUVINING IJTIMOIY OMILLARI....................88

**13. Shokirov Shaxrizod**
HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHDA
JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIKDA ISHLASH....................93

**14. Ixtiyarov Farxod**
INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOIY BARQARORLIK VA TARAQQIYOT OMILI........................................................................................................102

**15. Akramov Xasan**
YANGI O‘ZBEKISTONNING SPORT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA NORMATIV-HUQUQIY BAZASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI...........................................108

**16. Kalanova Sabohat**
JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARI IJTIMOIY HODISA SIFATIDA........................................................................................................................117

**17. Axrorov Zohidjon**
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY HODIM KASBINING JORIY ETILISHI, IJTIMOIY SIYOSATNING AMALIY NATIJASI SIFATIDA.......................................................................126

**18. Xujanov Zafar**
KAMBAG‘ALLIK SABABLARI VA UNI QISQARTISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARI..........................................................................................................132

**19. Turanazarov Umid**
KASBIY KOMPETENTLIK MOHIYATI VA RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI...............138

**20. Kaxarova Nilufar**
SHAXAR MEGOPOLISIDAGI AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI........................................................................145

**21. Хакимова Анора**
ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С МОЛОДЫМИ СПЕЦИАЛИСТАМИ В ОРГАНИЗАЦИИ.....154

**22. A’zamxonov Saidabzalxon**
TALABALAR MUSTAQIL TA’LIM OLISHINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....163

**23. Ro‘zimatov Elbek**
VOLONTYORLIK HARAKATINING NAZARIY TAHLILI....................................................170

**24. Masharipov Baxtiyar**
SHAHAR INFRATUZILMASINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI................................177

**25. Muzaffarov San’atbek**
VOLONTYORLIK HARAKATI – EZGULIK VAKSINASI......................................................185

**26. Yo’ldashev Shoxrux**
YOSHLAR BUGUNGI KUN RIVOJLANISHI SHAROITIDA MADANIY-HUQUQIY MUHITNING SUBYEKTI VA OBYEKTI SIFATIDA................................................................190

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Ixtiyarov Farxod,**
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi
Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti tadqiqotchisi
e-mail: farxod.ixtiyarov.77@gmail.com

# INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOIY BARQARORLIK VA TARAQQIYOT OMILI

**http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10800144**

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada inson kapitalini rivojlantirish va undan ko‘zlanayotgan asosiy maqsad, hamda inson kapitalining iqtisodiyotga ta’siri haqidagi tushunchalar o‘z aksini torgan. Inson kapitalini rivojlantirish va barqaror taraqqiyotga erishishni ta’minlashda ijtimoiy faktorlar va inson salohiyatini tashkil etuvchi funksiya (aniq) hamda disfunksiya (yashirin) omillarini keys metodi asosida shakllantirish imkoniyatlari aniqlangan. Ijtimoiy munosabatlar inson kapitalining determinanti sifatida jamiyatdagi ijtimoiy o‘lchovlarni birlashtirgan komrozit indekslar (daromad, ta’lim, salomatlik, ma’naviy-ma’rifiy, axborotlarga egalik, xorijiy tillarni bilish darajasi, madaniy hordiq va dam olish, o‘zini namoyon qilish) yaxlitligini ta’minlovchi pragmatik sotsiomadaniy indikator ekanligi va ularni keys metodi asosida rivojlantirishga asoslangan. Inson kapitalini har tomonlama rivojlanishida asosiy ijtimoiylashtiruv agenti sifatida ijtimoiy harakat, ijtimoiy munosabatlar, uzoq va sog‘lom umr ko‘rish, hayot farovonligi standartlari inson kapitalining identifikatsiyasi bilan bog‘liq holda keys metodi asosida rivojlantirish imkoniyatlari isbotlangan.

**Kalit so‘zlar:** inson, jamoa, keys metodi, guruh, inson kapitali, keys metodi, ijtimoiy kapital, rivojlantirish, jamiyat taraqqiyoti.

---

**Ихтияров Фарход,**
исследователь Бухарского института управления природными
ресурсами при Национальном исследовательском университете
«Ташкентский институт инженеров ирригации
и механизации сельского хозяйства»
e-mail: farxod.ixtiyarov.77@gmail.com

# РАЗВИТИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА – ФАКТОР СОЦИАЛЬНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ И ПРОГРЕССА

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье отражены концепции развития человеческого капитала и его основная цель, а также влияние человеческого капитала на экономику. В развитии человеческого капитала и обеспечении достижения устойчивого развития на основе кейс-метода определены

социальные факторы и возможности формирования функциональных (явных) и дисфункциональных (скрытых) факторов, составляющих человеческий потенциал. Социальные отношения как детерминанта человеческого капитала - это прагматический социокультурный показатель, обеспечивающий целостность комплексных показателей, объединяющих социальные измерения в обществе (доходы, образование, здоровье, духовно-образовательные, владение информацией, знание иностранных языков, культурный досуг и отдых, самовыражение). Обоснована роль основного агента социализации во всестороннем развитии человеческого капитала, социальных действий, общественных отношений, долгой и здоровой жизни, стандартов благополучия жизни.

**Ключевые слова:** человек, сообщество, кейс-метод, группа, человеческий капитал, социальный капитал, развитие, развитие сообщества.

---

**Ikhtiyarov Farhod,**
Researcher at the “Tashkent irrigation and mechanization of agriculture
Institute of Engineers” and a freelance researcher at
the Bukhara Institute of Environmental
Management of the National Research University.
farxod.ixtiyarov.77@gmail.com

## DEVELORMENT OF HUMAN CARITAL - A FACTOR OF SOCIAL STABILITY AND RROGRESS

**ABSTRACT**

This article reflects the concepts of human capital development and its main purpose, as well as the impact of human capital on the economy. In the development of human capital and ensuring the achievement of sustainable development, based on the case method, social factors and opportunities for the formation of functional (explicit) and dysfunctional (hidden) factors that make up human potential are identified. Social relations as a determinant of human capital is a pragmatic sociocultural indicator that ensures the integrity of complex indicators that unite social dimensions in society (income, education, health, spiritual and educational, knowledge of information, knowledge of foreign languages, cultural leisure and recreation, self-expression). The role of the main agent of socialization in the comprehensive development of human capital, social action, social relations, long and healthy life, and standards of well-being is substantiated.

**Key words:** person, community, case method, group, human capital, social capital, development, community development.

---

### КИРИШ

Jahonda inson kapitalini rivojlantirishga bo‘lgan talab va e’tibor har qachongidan kuchayib, bevosita hayot sifatini yanada yaxshilashga qaratilmoqda. Ijtimoiy jarayonlarning transformatsiyalashuvi natijasida jamiyatda raqobatbardosh mehnat munosabatlari shakllanib, aholi farovonligining oshishiga xizmat qilmoqda. Inson kapitalini rivojlantirish konsersiyasining hozirgi zamon xalqaro amaliyotini o‘rganish, BMTning “Inson taraqqiyoti” dasturi tomonidan inson taraqqiyotini shakllantiruvchi “uzoq va sog‘lom umr ko‘rish”, “ma’lumot (ta’lim) darajasi”, “hayot farovonligi standartlari” mezonlarini xalqimiz turmush tarziga singdirish izchil ilmiy izlanishlarni talab qiladi. Urbanizatsiya va migrasiya jarayonlarning kuchayishi, xalqlarning assimilyatsiyalashuvi natijasida marginallikning tezlashishi tufayli inson omili bilan bog‘liq yangi muammolar vujudga kelmoqda.

Dunyoda yuksak insoniy fazilatlarni kamol tortirish yo‘lidagi izlanishlar, inson kapitali hodisasining ijtimoiy hamda iqtisodiy mohiyati inson kamolotini ta’minlash va odamlarni yaxshilik yo‘lida birlashtirishda namoyon bo‘ladi. Inson kapitali omili gumanistik maqsadlarga erishish uchun keys metodi asosida shakllantirish bevosita metodologik asoslarga tayanadi. Texnikaviy taraqqiyot natijasida jamiyatda sodir bo‘layotgan texnokratik jarayonlar va boshqa hodisalar insondan komretensiyalarni tezkorlik bilan muntazzam oshirib borishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Bu inson

kapitalining mohiyati, uning rivojlanib borish tendensiyalari hamda turmush barqarorligi masalalarini ham tadqiq etish zaruratini tug'dirmoqda.

**METODOLOGIYA**

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda inson kapitalining qiymati jamiyat qoidalari va qonun talablariga monand yashovchi insonni hamda zamonaviy talablar darajasida ishlay oladigan mutaxassisni shakllantirish uchun davlat tomonidan sarf etilgan mablag'lar miqdori bilan belgilanadi, degan fikr ustuvor.

O'zbekistonda inson kapitali muammosini tadqiq qilish zarurati tobora oshib bormoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekistonni dunyoning taraqqiy topgan, ijtimoiy-iqtisodiy barqaror o'sayotgan va inson kapitali yuqori bo'lgan demokratik davlatlari qatoriga kirishini ta'minlash – barqaror rivojlanish strategiyamizning mazmun va mohiyatini tashkil etadi", deb ta'kidlagan [1, – B.20]. Mamlakatimizda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar asosida qabul qilingan "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida" gi farmonida ustuvor vazifalari belgilab berilgan.

Inson kapitali uning egasidan ajralmaydigan va undan bu kapitalni hech kim tortib ola olmaydigan mulk sanaladi. Shu boisdan ham inson kapitali jamiyatning eng noyob qadriyati va ijtimoiy taraqqiyotning bosh harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Inson kapitali bu har bir insondagi bilimlar, egallangan boy kasbiy tajribalar, yaratish, bunyodkorlikka yo'naltirilgan investitsiyalar doirasidagi bilimlar orttirish kasbiy malakalarini oshirish, salomatlikni mustahkamlash, hamda yangi ma'lumotlarni torish, ularni egallab olish va bu ma'lumotlardan unumli foydalana olish salohiyatini shakllantirishga qaratilgan faoliyatlar kiradi.

Ma'lumki, "Inson kapitali"ga oid masalalar va u bilan bog'liq ijtimoiy muammolarning sotsiologik jihatlari ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida soha mutaxassislari tomonidan aholi zich istiqomat qiladigan hududlar ko'lamida ijtimoiy-iqtisodiy, etnopsixologik, huquqiy hamda ma'naviy-siyosiy nuqtai nazardan tadqiq etilgan.

XX-asr sotsiologiyasining yorqin namoyondalari D.Tomson va X.Bekker "sotsial shartnoma" ta'limoti, Xose Ortega-Gasset, K.Mangeym, R.Burde, I.Gofman, I.Kon, T.Shanin hamda R.Nora kabi olimlar inson kapitalining sotsial fenomen sifatida rivojlanib borishini etnosotsiologik yondashuvlar tizimida, sotsiomadaniy kontekstda o'rganish fikrini ilgari surdilar [2-6]. Shuningdek, inson kapitali XX-asrning 60-yillaridan boshlab mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida iste'molga kiritildi. Qolaversa, Xalqaro Nobel mukofoti sohiblari T.Shuls va amerikalik mutafakkir D.Bell [7,8] ning bir qator asarlarida ushbu masalaga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Ma'lumki, Inson farovonligi va rivojlanish indeksi (Human develorment index, IFRI) – bu bir yil davomida YaIMning ulushi, aholining savodxonlik darajasi va uzoq umr ko'rish davomiyligini baholaydigan ko'rsatkichdir.

**ASOSIY QISM**

Inson kapitalini rivojlantirishda deduktiv tafakkur muhim ahamiyat kasb etadi. Undan umumiy tushunchadan juz'iy fikrga o'tishda, yoshlarda mustaqil, tanqidiy, tahliliy fikrlashni shakllantirishda, mantiqiy zaruriy xususiyatga ega bo'lishda, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar turli shakllarini namoyon qilishda foydalanish mumkin.

Analogiya (grek. – moslik, o'xshashlik) bevosita xulosa chiqarishning bir turidir. Deduktiv xulosa chiqarishda fikr umumiylikdan juz'iylikka qarab, induksiyada juz'iylikdan umumiylikka qarab harakatlansa, analogiyada predmet va hodisalarning o'xshash belgilarga qarab xulosa chiqariladi.

Inson kapitalini rivojlantirishda analogiyada predmetlarning o'xshash xossalariga asoslanib xulosa chiqariladi. Tabiat va jamiyatda obyektiv turli-tumanlik bilan bir qatorda, obyektiv o'xshashlik ham mavjuddir. Ular inson ongida o'z ifodasini topadi. Obyektiv reallikning turli sohalariga oid qonun va qoidalar tuzilishi jihatdan o'xshash bo'lsa, ular aks ettirgan voqelikdagi turli narsa va hodisalar ham ma'lum ma'noda o'xshash bo'ladi.

Tadqiqot doirasida 2022-2023-yil davomida "Bugungi kunda O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish masalalari: muammo va yechimlar" mavzusida eksrert so'rovi o'tkazildi. Ekspert so'rovida jami 65 nafar ekspert ishtirok etdi. So'rovda 59% erkak, 41% ayol, 49,5% shaharda, 50,5%

qishloqda istiqomat qiluvchilardan iborat boʻldi. Ekspert soʻroviga quyidagi kasblarda faoliyat yuritib kelayotgan ekspertlar jalb etildi.

"Bugungi kunda yurtdoshlarimiz oʻzlarini har tomonlama rivojlantirishda asosan nimalarga e'tibor qaratishmoqda?" degan savolga atigi 16% ekspertlar tomonidan "Aqliy-intellektual rivojlanish orqali", deb javob berilgan (1-rasm).




**1-rasm. Bugungi kunda yurtdoshlarimiz oʻzlarini har tomonlama rivojlantirishda asosan nimalarga e'tibor qaratishmoqda?**

Ma'lumki, mamlakat taraqqiyotini birinchi navbatda insonlarning aqliy-intellektual rivojlanganlik holati belgilaydi. Bu esa insonlarning oʻz intellektual salohiyatini oshirish uchun koʻproq vaqt va e'tibor qaratishlarini taqozo etadi. Bugungi postindustrial jamiyat taraqqiyoti inson kapitalini rivojlanishning drayveri darajasiga koʻtardi. Shu nuqtai nazardan jamoatchilikni aqliy-intellektual salohiyatini oshirishga e'tibor qaratish muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, bu borada inson kapitaliga alohida e'tibor qaratish kitobxonlik, ijtimoiy, badiiy, siyosiy ijodkorlik bilan mashgʻullikni ta'minlash dolzarb vazifalar qatoriga kiradi.

Tadqiqotlarimizning koʻrsatishicha, inson kapitalini rivojlantirish jarayonida qoʻllaniladigan keyslar turlicha tasniflanishi mumkin. Inson kapitalini rivojlantirishda mehnat muhim ahamiyat kasb etadi. U inson ongi va tafakkuri rivojlanishi, yangicha dunyoqarashlar shakllanishi, shu bilan birga, bandlik masalalarini oʻzida qamrab olishi bilan ham ahamiyatli.

Inson kapitalini keys metodi asosida rivojlantirishda bevosita deduktiv va induktiv shuningdek, ratsional, irratsional, obrazli, sintetik tafakkur asosida, hayotiy keyslarni yechishni taqazo etishi bilan masalalarning negiziga qarash va hal qilish imkoniyatini beradi.

Inson kapitalini rivojlantirishda keyslar bilan oldindan tanishishda tahlil qilish jarayoni sistematik yondashuvni talab qiladi. Keyslar ustida ishlash keysni tahlil qilishda foydalaniladigan nazariy konsepsiyalar va yondashuvlarni, keys haqida umumiy tasavvur hosil qilishni, keys savollariga diqqatni qaratishni va talab qilinayotgan narsani yaxshi tushunishni taqozo qiladi.

Inson kapitali shakllanishi va amalda boʻlishining asosiy belgi va xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Inson kapitali insonning oʻzidan va jamiyat (davlat)dan ma'lum miqdorda harajatlar qilinishini taqozo etadi;
- Inson kapitali bilim, koʻnikma va tajriba sifatida har doim toʻldirilib va takomillashtirilib boriladigan zahiradir;
- Inson kapitali ham eskirishi, oʻz qiymatini yoʻqotishi va qoʻshimcha harajat talab qilishi mumkin;

- Inson kapitali uchun sarflangan investitsiyalar uning sohibiga yuqori kirim va foyda olishini ta'minlaydi;
- Inson kapitali uchun sarflangan mablag' katta hajmli va uzoq vaqt davom etadigan iqtisodiy va ijtimoiy samara keltiradi;
- Inson kapitalining investitsion davri moddiy kapitalnikidanancha uzoq davom etadi. Masalan, asosiy kapital uchun bu davr 1-5 yilni tashkil etsa, ta'lim kapitali shaklidagi inson kapitali uchun bu davr 12- 20 yilni tashkil etadi;
- Inson kapitali moddiy kapitaldan likvidlilik tarafidan hamfarq qiladi. U o'zining sohibi – tirik inson shaxsi bilan bevosita bog'liqdir;
- Shakllanishi uchun xizmat qilgan moliyaviy manbalar kimga tegishlibo'lganligidan (oila, davlat yoki homiylar) bo'lishidan qat'iy nazar, inson kapitalidan va u keltiradigan foydadan foydalanishni muayyan shaxsning o'zi hal qiladi;
- Inson kapitalining amalda bo'lishi va uning istifoda etilishi subyektning erkin irodasi, uning xohish-irodasi, uning moddiy va ma'naviy manfaatdorligi, dunyoqarashi, mas'uliyati, umumiy madaniy darajasi kabi taraflar bilan chambarchas bog'liqdir.

**XULOSA**

Inson kapitalini Keys metodi asosida rivojlantirishda «shaxs-jamiyat-davlat» yondashuvi qo'llanildi. Bu inson kapitalini shaxs darajasida har bir inson o'zini o'zi qanday rivojlantira olishi, jamiyat darajasida odamlarning salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar va davlat tomonidan inson kapitalini rivojlantirish uchun qilinishi kerak bo'lgan vazifalar barqarorlik hamda taraqqiyot kafolati hisoblanadi.

Raqamli jamiyat sharoitida ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish bot orqali tanishuv, internet orqali jamoalashuv yoki veb-jamiyat, elektron hujjat almashinuvi, elektron integratsiyalashuv, ma'lumotlar elektron bazalari, CRM (mijozlar bilan o'zaro munosabat tizimi), korrorativ tarmoqlar, sun'iy intellekt, kodlashgan tizimlar sharoitida inson kapitalini rivojlantirish yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarni oldini olish birgalikda, faol fuqarolik rozitsiyasini moddiy-ma'naviy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Keys metodini qo'llash asosida inson kapitalining transformasiyalashuvi "strukturali" va ijtimoiy mental o'ziga xos xarakteriga ko'ra "ijtimoiy-madaniy" tasniflarga ajratildi. Inson omilining sotsiumdagi faollashuviga iqtisodiy sabablardan tashqari, ijtimoiy, siyosiy, psixologik va ma'naviy omillar ham ta'sir ko'rsatishi hamda sotsiologik gipotezalar asosida tahlil qilinishi inson kapitalini ijtimoiy munosabatlarida samarali natijalar beradi.

Inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy kapitalni shakllanishi va rivojlanishini tizimli tartiblash, inson kapitalining ilmiy, ta'limiy asoslarga tayangan sifatiy ko'rsatkichlarga bog'liqligi bo'yicha omillar ushbu kapitalning o'ziga xos xususiyatlariga ta'sir etishi Keys metodi asosida ko'rsatib berildi. Shaxsning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, milliy, madaniy va jarayonlarga integratsiyalashuvi bevosita bog'liq ekanligi isbotlandi.

Inson kapitalining rivojlanish jarayonlari innovasiyalar bilan bevosita bog'liq. Shu bilan birga, uning harakatchanligiga ta'sir o'tkazadigan turli ijtimoiy bosimlar, kasbiy mahorat, salohiyat va qobiliyatning inkor etilishi yoki hisobga olinmasligi kabi muammolar oldini olish uchun iste'dodli, qobiliyatli va salohiyatli kadrlarning inson kapitali rivoji hamda istiqboli uchun xizmat qilishlariga keng shart-sharoitlar yaratish va ularning jamiyatni rivojlantirish uchun o'zini hissasini qo'shishga yo'naltirilgan loyihalar tayyorlash ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risidagi asoslar keltirildi.

Zamonaviy dunyoda axborotlashgan jamiyatdan raqamli jamiyatiga o'tishda inson kapitali komponentlarini o'rganish, uning ko'rsatkichlarini baholash, mamlakatning xalqaro maydonda indeksini oshirib borish dolzarb ahamiyatga ega. Keys metodi asosida inson kapitalini oshirib borish va modernizasiya qilish yo'llarini aniqlash imkonini beradi.

Keys metodi asosida kasbiy mahorat va ijtimoiy kapitalning rivojlanib borishini empirik o'rganilib, shaxsni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining obyektiv ko'rsatkichlari tadqiq etilgan. Ijtimoiy

xususiyatlarning, jumladan hayotidan qoniqish, fuqarolik erkinligi, inson huquqlari, etnik bag‘rikenglik va tolerantlik, muloqotda milliy til, diniy etiqod va marosimlar, an’anaviy madaniyat, qadriyatlar hamda ishbilarmonlik muhitni uyg‘un holda ijtimoiy kapital asosiga tayanadi.

**Адабиётлар/ Literatura/ References:**


1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O’zbekiston, –2021. – B.206.
2. Беккер Г. С. Человеческое поведение: Экономический подход: избранные труды по экономической теории. – М.: ГУ ВШЭ, 2003. – 672 с.
3. Ортега-и-Гасет Х.., Маннгейм К. Очерки социологического знания. Теория познания – мировоззрение – историзм. – М., 1998. – С. 84–85.
4. Бурдье П. Социология социального пространства. – М.: Алетейя, 2007. – С. 80 –278.
5. Гофман И. Представление себя другим в повседневной жизни. – М.: Канон пресс, 2006.
6. Шанин Т. История поколений и поколенческая история / Отцы и дети: поколенческий анализ современной России. – М., 2009. – С. 17–38.
7. Schulz T. Carital Formation bi Edukathion // Journal of Rolitikal Economu. – 1960. – №1. – P. 25.
8. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. – М.: Academia, 1999. – 949 с.

Tadqiqot uz

ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

# ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

# ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

# JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

SPECIAL ISSUE-1

MAQOLADA KELTIRILGAN DALILLARNING TO'G'RILIGI UCHUN MUALLIF MAS'ULDIR | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000